

# **Uzbekistan Airways vakillari “Alma Fest” festivalida ishtirok etdilar**

**2024 18 Sentabr**

Uzbekistan Airways vakillari Olmaota shahrining kuni munosabati bilan har yili o'tkaziladigan “Alma Fest” festivalida ishtirok etdilar. Bayram tadbirida 30 mingga yaqin ishtirokchi qatnashdi. Ularning aksariyati O'zbekiston chodiriga tashrif buyurib, u yerda respublika amaliy san'ati buyumlari ko'rgazmasi va mamlakatning sayyohlik salohiyati, shuningdek, aviakompaniya mahsulotlari namoyish etildi.

Mehmonlar mamlakatimiz haqida ma'lumotga ega bo'llish bilan bir qatorda, mashhur o'zbek oshxonasining taomlarini – an'anaviy palovdan tortib O'zbekistondan keltirilgan sharqona shirinliklarni tatib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.







UZBEKISTAN  
AIRWAYS



